




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI
TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
SO'G'LIQNI SAQLASH
SOHASINING
ASOSIY STATISTIK
KO'RSATKICHLARI
(2024- yil 1- yanvar
holatiga)






Statistik ko'rsatkichlar

- ❖ Sog'liqni saqlash statistikasi – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va jihozlari, tibbiyot xodimlari), butun aholi va uning alohida kontingentlarining sog'lig'i holatini o'rganadigan statistika bo'limi; umumiy odamlar va uning alohida guruhlari orasida kasallanishning tarqalishi, tuzilishi va chastotasi.
- ❖ Tibbiyot muassasalari – tarmog'iga barcha mulkchilik shaklidagi shifoxona va ambulatoriya, shoshilinch tibbiy yordam, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kiradi.
- ❖ Shifoxona o'rinlari – statsionar davolash-profilaktika muassasa-laridagi (kasalxona, tug'ruqxona, shifoxona, ixtisoslashtirilgan dispanser va boshqalar) ma'lum hudud aholisiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yotoqxonalar majmuasi. Bemorlarni tibbiy ixtisoslashtirish uchun barcha yotoq va yotoqxonalar bilan ta'minlash, qoida tariqasida, 10 ming kishiga hisoblab chiqiladi.
- ❖ Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya muassasalarida, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash institutlarida va hokazolarda ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotli barcha mutaxassislar kiradi.
- ❖ Tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiy-sanitariya tashkilotlarida, ijtimoiy ta'minot muassasalarida, mahalliy tibbiyot muassasalarida




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Toshkent shahrida shifoxona muassalari soni* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassalari sonini qo'shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga shifoxona muassasalari soni 167 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 21 tagacha oshgan.

Toshkent shahrida shifoxona muassalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi ¹⁾ (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




*Hududlar kesimida taqsimlanmagan
ma'lumotlarni qo'shgan holda




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Toshkent shahrida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni
(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Toshkent shahrida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 2024-yilda 81 tani tashkil etdi, bu esa 2019-yil 1-yanvarga nisbatan 25 taga (ya'ni 44,6 foizga) oshgan.

Toshkent shahrida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi
(2024 yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga tumanlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Yunusobod tumanida (13 ta), Olmazor (12 ta) va Chilonzor (11 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Bektemir (2 ta) hamda Sergeli (3 ta) tumanlarida kuzatilgan.




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik

shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalari soni*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Toshkent shahrida ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Ularning o'sishi 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda 26 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalarining tumanlar kesimida taqsimlanishi*

(2024-yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga tumanlar kesimida eng ko'p Toshkent shahrida ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Yunusobod (190 ta), Chilonzor (160 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa tumanlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Bektemir (12 ta), Yangihayot (20 ta)


*tumanlar kesimida taqsimlanmagan
ma'lumotlarni qo'shgan holda



TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni

(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 919 tani tashkil etdi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalarning tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent shahrida eng ko'p ambulatoriya poliklinikalari Yunusobod (159 ta) va Mirzo Ulug'bek (135 ta) tumanlarida kichik biznes sub'yektlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Toshkent shahrida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming birlik)



Aholi uchun shifoxona muassasalarida bemor o'rinlar soni barqaror o'sib bormoqda. 2024- yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 25,9 ming o'rinni tashkil qildi.

Toshkent shahrida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni tumanlar kesimida* (2024- yil 1- yanvar holatiga, ming birlik)




*tumanlar kesimida taqsimlanmagan
ma'lumotlarni qo'shgan holda




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



2020-yil 1-yanvardan 2024-yilgacha Toshkent shahrida shifokorlar soni 20,7 ming kishidan 23,1 ming kishiga ko'paydi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni tumanlar kesimida* (2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




2024-yil 1-yanvar holatiga tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Olmazor (4,1 ming kishi), Yunusobod (4,0 ming kishi) tumanlarida ro'yxatga olingan. Bektemir tumanida 0,1 ming shifokor, Yangihayot tumanida 0,3 ming shifokorlar mavjud.

*tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




Toshkent shahri bo‘yicha, mulkchilik shakli kichik
tadbirkorlik (biznes) sub‘yekti sifatida faoliyat
yuritayotgan vrachlar soni
(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Kichik tadbirkorlik (biznes) sub‘yekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2020- yildan 2024 - yilgacha 2,9 mingdan 5,2 minggacha oshgan.


Toshkent shahri bo‘yicha, mulkchilik shakli kichik
tadbirkorlik (biznes) sub‘yekti sifatida faoliyat
yuritayotgan vrachlar soni tumanlar kesimida
(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Kichik tadbirkorlik (biznes) sub‘yekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Yunusobod tumanida 0,8 ming kishi, Chilonzor, Mirzo Ulug‘bek va Olmazor tumanlarida - 0,7 ming kishini hamda Shayxontohur tumanida - 0,5 ming kishini tashkil etdi.



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo‘yicha taqsimlanishi (tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Vrachlar malaka toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, % da)



Shifokorlarning katta qismi yuqori malakaga ega: ularning 35,2 foizi eng yuqori toifaga ega. Birinchi va ikkinchi toifadagi shifokorlar mos ravishda 11,7% va 9,1% ni tashkil qiladi. Uchinchi toifa mutaxassislari 1,2 foizni tashkil etsa, 42,8 foizi toifaga ega bo‘lmagan mutaxassislardir.



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan vrachlarning
gender bo'yicha taqsimlanishi *
(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, kishi)



 Ayollar

 Erkaklar




Toshkent shahrida shifokorlar bo'yicha gender taqsimoti aksariyat tumanlarda ayollarning ustunligini ko'rsatadi. Ayollar va erkaklar orasida shifokorlarning eng ko'p soni Olmazor tumanida qayd etilgan. Yunusobod va Mirzo Ulug'bek tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Eng kam shifokorlar Bektemir va Yangihayot tumanlarida.

*tumanlar kesimida taqsimlanmagan
ma'lumotlarni qo'shgan holda




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Toshkent shahrida o'rta tibbiyot xodimlari soni* (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Toshkent shahrida o'rta tibbiyot xodimlari soni 2020-yilda 38,5 ming kishidan 2024-yilda 37,8 ming kishiga kamaydi. Ushbu davrda kamayish 0,7 ming kishini tashkil etdi.

Tumanlar bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari soni* (2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




2024-yil 1-yanvar holatiga Toshkent shahrida eng ko'p faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlari soni Yunusobod tumanida 6,3 ming kishi, Olmazor tumanida 6,2 ming kishini tashkil etmoqda.

*tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




TOSHKENT SHAHRIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Toshkent shahrida aholining kasalliklarga chalinishi
(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



Toshkent shahrida aholining kasalliklarga chalinishi
tumanlar bo'yicha

(2024- yil 1- yanvar holatiaga, 100 000 aholiga nisbatan)




Toshkent shahrida aholining kasallanish darajasi tumanlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, uning eng yuqori ko'rsatkichlari Chilonzor tumanida qayd etilgan (100 ming aholiga 824,4), bu aholisining yuqori zichligiga asoslanib, boshqa tumanlarda eng kam kasallik qayd etilgan (41,7).

Izoh: Toshkent shahrida joylashgan Markaziy tibbiyot ilmiy markazining barcha hududlaridan poytaxtga davolanish uchun kelgan bemorlarning ko'pligi sababli aholining birlamchi kasalliklari ko'rsatkichi 100 ming kishidan oshishi mumkin.




Toshkent shahrida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni*

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Tumanlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni*

(2024- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)




*tumanlar kesimida taqsimlanmagan
ma'lumotlarni qo'shgan holda

Bemorlarning aksariyati Olmazor tumani (157.3 ming kishi), Mirzo Ulug'bek (118.7 ming kishi) va Chilonzor (109.7 ming kishi) tumanlarida shifoxonalarda davolangan. Eng kam ko'rsatkichlar Bektemir (0.3 ming kishi) va Sergeli (3.4 ming kishi) tumanlarida qayd etilgan. Shuningdek Chilonzor (109.7 ming), Yunusobod (85.4 ming kishi) va Yashnobod tumanlarida (77.8 ming kishi) davolangan.



Toshkent shahrida kasalliklarning asosiy



2) 15-49 yoshdagi ayollar



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Toshkent shahar
statistika boshqarmasi



e-mail: ijtimoiy_soha@toshstat.uz



Manzil: 100000, Toshkent
sh., Amir Temur ko'chasi,
11-uy



www.toshstat.uz



Tel.: +99871 203-88-27



[facebook.com/ Toshkent
shahar statistika
boshqarmasi](https://facebook.com/Toshkentshaharstatistika)

